



**QASHQADARYO VILOYATI
QAMASHI TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I**

180500, Qamashi shahri, Amir Temur ko'chasi, 1-uy. Tel: (375) 53-24-490, t.qamashi@exat.uz

2022 - yil 15 - sentabr

356-4-58-Q/22

Qamashi tuman hokimligi

**Qamashi tumani hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo'llari va
markaziy ko'chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati
xavfsizligini ta'minlash, yo'l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida
yo'l belgilari o'rnatish to'g'risida**

“Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 25-moddalari, “Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida”gi Qonunining 7-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 12-apreldagi 172-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yo'l harakati Qoidalari” talablariga asosan Qamashi tumani hududida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha profilaktik-ogohlantirish va og'ir oqibatli yo'l-transport hodisalarining oldini olish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo'lgan keng ko'lamli tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar rejasini ijrosini ta'minlash maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Qamashi tuman hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo'llari va markaziy ko'chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta'minlash, yo'l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o'rnatilishi lozim bo'lgan yo'l belgilari va manzili ilovaga asosan tasdiqlansin hamda mazkur yo'l belgilarini o'rnatishga ruxsat berilsin.

2. Qamashi tuman Ichki ishlar bo'limi boshlig'i N.Meyliyev, tuman ichki ishlar bo'limi Yo'l harakati xavfsizligi bo'linmasi boshlig'i SH.Jumayev va tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi direktori SH.Almardonov tuman hududida

umumfoydalanuvdagi avtomobil yo'llari va markaziy ko'chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta'minlash, yo'l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo'l belgilarini o'rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

3. Mazkur qaror "Qamashi" gazetasida (T.Tillayev) e'lon qilinsin hamda hokimlikning Qamashi tuman.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

4. Ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari Q.Haydarov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



B.Tog'ayev

Qamashi tuman hokimining
2022 yil 15 sentabrdagi
356-4-58-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tuman hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo'llari va markaziy ko'chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta'minlash, yo'l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o'rnatilishi lozim bo'lgan yo'l belgilari va manzili

RO'YXATI

№	Yo'l belgisi o'rnatilgan manzil nomi	Yo'l belgisini nomi	Yo'l belgisini soni
1.	4R79“Qarshi-Chim-Shahrisabz” avtomobil yo'lining 39-40 kilometrlar oralig'ida yo'lning o'ng va chap tomonida,	3.27 “To'xtash ta'qiqlangan”	2- dona
2	4R79“Qarshi-Chim-Shahrisabz” avtomobil yo'lining 39-40 kilometrlar oralig'ida yo'lning o'ng va chap tomonida,	5.12 “Avtobus to'xtash joyi”	2- dona
3	4R79“Qarshi-Chim-Shahrisabz” avtomobil yo'lining 48-49, 54-55 км oralig'ida yo'lning o'ng va chap tomonida,	1.24 “mol haydab o'tish”	4 - dona
4	4R79“Qarshi-Chim-Shahrisabz” avtomobil yo'lining 48-49, 54-55 км oralig'ida yo'lning o'ng va chap tomonlariga	5.16.1-5.16.2 “piyodalar o'tish joyi” 1.20 “piyodalar o'tish joyi” 1.21 “Bolalar”	8- dona
5	4R79“Qarshi-Chim-Shahrisabz” avtomobil yo'lining 25-26,45-46 км oralig'ida yo'lning o'ng va chap tomonida,	1.8 “svetofor”	4 - dona
6	4R79“Qarshi-Chim-Shahrisabz” avtomobil yo'lining 39 va 53 км oralig'ida	6.7 “ oshxona”	2 - dona
7	4R86 “Langar q.-Maydanak q.” avtomobil yo'lining 6-7,9-10,12-13km oralig'ida.	1.24 “mol haydab o'tish”	6- dona
8	4R86 “Langar q.-Maydanak q.” avtomobil yo'lining 0-1 km oralig'ida yo'lning o'ng va chap tomonlariga	3.27 “To'xtash ta'qiqlangan”	2- dona
9	4K340 “Qamashi-Chimqo'rg'on” avtomobil yo'lining 8-11 km oralig'ida yo'lning o'ng va chap tomonlariga	1.24 “mol haydab o'tish”	4 - dona
10	4K340 “Qamashi-Chimqo'rg'on” avtomobil yo'lining 3 km oralig'ida	5.16.1-5.16.2 “piyodalar o'tish joyi” 1.20 “piyodalar o'tish joyi” 1.21 “Bolalar”	6-dona
11	4K340 “Qamashi-Chimqo'rg'on” avtomobil yo'lining 5 km oralig'ida	5.16.1-5.16.2 “piyodalar o'tish joyi” 1.20 “piyodalar o'tish joyi” 1.21 “Bolalar”	6- dona
12	4K340 “Qamashi-Chimqo'rg'on” avtomobil yo'lining 10 km oralig'ida yo'lning o'ng va chap tomonlariga	5.16.1-5.16.2 “piyodalar o'tish joyi” 1.20 “piyodalar o'tish joyi” 1.21 “Bolalar”	6- dona
13	4K340 “Qamashi-Chimqo'rg'on” avtomobil yo'lining 4-5 km oralig'ida yo'lning o'ng va chap tomonlariga	5.12 “Avtobus to'xtash joyi”	2- dona

Жами	54 дона
-------------	----------------